

---

## RISHTONDA “KULLOLLAR SHAHARCHASI”GA RAMZIY TOSH QO’YILDI

Rishton - Buyuk Ipak yo’lida tashkil topgan, Farg’ona vodiysining eng qadimiy shaharlaridan biri sanaladi. Rishton kulolchiligi matabining dovrug’i esa butun dunyoga mashxur.

■ Shuning uchun ham O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Rishtonda “Kulollar shaharchasi”ni barpo etish haqidagi qarori loyihasi e’lon qilindi.

■ Bugun rishtonlik kulollar uchun tarixiy kun bo’ldi. Ushbu majmuaning birinchi tamal toshi qo’yildi.

Tantanali marosimda O’zbekiston Respublikasi Bosh vaziri o’rinbosari, investitsiya va tashqi savdo vaziri Sardor Umrzoqov, Farg’ona viloyati hokimi Shuhrat G’aniyevlar ishtiroy etdi.

“Kulollar shaharchasi”da 20 ta usta kulollar uchun maxsus ustaxona, do’konlar quriladi. Xorijiy va mahalliy sayyohlar uchun majmua tarkibida mehmonxona qurilishi ham rejalashtirilgan. Bu yerda 100 ta yangi ish o’rni yaratiladi.

**Farg’ona viloyati hokimligi Axborot xizmati**

[Facebook](#), [Telegram](#), [Veb sayt](#), [YouTube](#)

2020-05-01 18:33:34